

**XI-XIII ASRLARDA XORAZM VOHASIDA HUNARMANDCHILIK
SOHASI VA UNING TARAQQIYOTI**

Yunusova Dilnoza Mametsharipovna

Toshkent amaliy fanlar Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada Xorazm vohasining Anushteginiyalar davrida ijtimoiy sohalardan biri hunarmandchilik va uning tarmoqlarga bo‘linishi hamda rivojlanishi. Hunarmandchilikning Anushteginiyalar davlati ijtimoiy taraqqiyotiga ta’siri manbalar misolida yoritildi.

Kalit so‘z: Anushteginiyalar, Gurganj, zargarlik, arxitektura, qoshinsozlik, qandil, me`morchilik, chitgar, arxeologiya.

Аннотация В данной статье рассматривается одна из социальных сфер Хорезмского оазиса в эпоху Ануштегинидов, а именно ремесло, его разделение на отрасли и развитие. На примере источников проиллюстрировано влияние ремесел на общественное развитие государства Ануштегини.

Ключевые слова: Ануштегини, Гургандж, ювелирные изделия, архитектура, изготовление плитки, люстра, архитектура, читгар, археология.

Abstract This article examines the development and division of crafts, one of the social spheres of the Anushteginid period in the Khorezm oasis. The influence of crafts on the social development of the Anushteginid state is illustrated by the example of sources.

Keywords: Anushteginids, Gurganj, jewelry, architecture, tile-making, chandelier, architecture, chitgar, archeology.

Xorazmshohlardan Takash va Alovuddin Muhammad hukmronligi yillarida Gurganjning eng gullab yashnagan davri edi. Xorazmshohlar o‘z davlatining istiqboliga katta e’tibor bilan qaraganlar hunarmandchilikning rivojlanishiga, savdosotiqlarning kengayishiga homiylik qilganlar al-Kazviniy o‘sha davrda Gurganjda 50 dan ortiq hunarmanchilik turi mavjud bo‘lganini va Gurganj hunarmandlari o‘z mahoratlari jihatidan jahonda tengi yo‘q ekanliklarini aytgan¹.

VIII—XII asrlarda O‘rta Osiyoda ilk O‘rta asr musulmon madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilishida madaniyatining o‘zaro ta’siri, qorishuvi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda moddiy madaniyat, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi asosida san’atning turli sohalari ham taraqqiy etdi, arxitektura, o‘ymakorlik, badiiy hunarmandchilik, musiqa, qo‘lyozma bezash kabi sohalar yuksaldi. O‘rta asrdagi qator sayyohlar, tarixchilar bu davrda O‘rta Osiyo

¹ Buniyadov Z.M. Anushtegin Xorazmshohlar davladi, (1097-1231). T, «Adabiyot va sanat», 1997, 103- 104 бетлар.

boshqa Sharq mamlakatlari ichida eng rivojlangan o‘lka bo‘lganligi haqida hikoya qiladilar. Bu o‘lkada ko‘rkam shaharlar ko‘p bo‘lgan, suv inshootlariga, binolarga, qurilishlarga boy bo‘lgan, qishloq ho‘jaligi rivojlangan, hunarmandchilik taraqqiy etgan.

Zargarlik hunarmandchilikning qadimiy va ananaviy sohalaridan biridir. Zargarlik buyumlari xalqning etnik va axoloqiy ideallarini belgilab beradigan amaliy san’atning ommaviy turlaridan biri. Zargarlik buyumlarini tasnifiy o‘rganish Xorazmning antik davrdagi savdo iqtisodiy va madaniy aloqalardagi o‘rnini aniqlashda hamda estetik hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘zaliqir, Bozorqal'a, Qo'yqilganqal'a, Tuproqqa'l'a edgorliklaridagi arxeologik topilmalar guvohlik beradi. Tuproqqala saroyidan shisha, anor, carnelian toshidan taylorlangan xilma-xil munchoqlar va boshqa zargarlik buyumlari topilgan².

Xorazmda o‘rta asrlarda hunarmandchilikning turli sohalari taraqqiy qilgan bo‘lsa ham voha hali agrar davlat edi. Xalqning asosiy qismi dehqonchilik va chovachilik ishlari bilan shug‘ullangan. O‘rta asrlarda qishloq ho‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini atrofdagi ko‘chmanchi xalqlar va Sharqiyy Evropa davlatlariga eksport qilish Xorazm iqtisodiyotining asosini tashkil etgan. Bu to‘grisida Arab sayyohi al-Maqdisiy (X asr) “u juda ko‘p shaharlarga ega bo‘lgan, yoppasiga, keng va muhtasham bir o‘lkadir... Son-sonoqsiz uy-joy, tutash bog’lar, daraxtzor va ekinzorlar; uzum sharbati siqadigan qurilmalar bor, meva mo’l, tijorat ahliga mol-hol bemalol..... Darg’on shahri atrofidagi 500 tokzor daryo bo‘ylab ikki farsah (11,4 km) ga cho‘zilgan. Shahardan kishmish tashqi savdoga chiqarilgan. Mizdahqon shahri 12 mingdan ortiq rustoqlar (qishloq joylari) markazi bo‘lgan³” deya tariflaydi.

O‘rta asrlarda jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar hunarmandchilik sohalarining taraqqiyotiga ham ta’sir qildi. O‘rganilyotgan davrda Xorazm nafaqat Markaziy Osiyodagi, balki Sharqdagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan rivojlangan vohalardan biri edi. Vohaning shahar va qishloqlarida hunarmandchilik markazlari qizg’in faoliyat olib bordi. Bu davrda hunarmandchilik tarmoqlarining rivoji vohada iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyotiga zamin yaratdi. Ayniqsa, o‘rta asrlarda Xorazmda hunarmandchilikning sopolchilik, shishsozlik, to’qimachilik, toshga ishlov berish, metalsozlik sohalari mahsulotlarni ishlab chiqarish alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ma’lumki, Anushteginiylar boshqaruvi davrida Xorazmda katta iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xorazmshohlar davrida eski shaharlar bilan birga, chegaradosh harbiy mudofaa qo‘rgonlari yonida yangi shahriston va rabodlar

² Абдулаев Т.П. XII-XV асрларда Хоразм хунармандчилиги. тарих фан. Номзоди. Дис 2011. Б.-247.

³ ТУРГАНОВ БАХЫТ КУРБАНБАЕВИЧ ХОРАЗМНИНГ ЎРТА АСРЛАРДАГИ МЕТАЛЛСОЗЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.- Самарқанд.2019.-Б.255.

shakllandi. Yangidan qad rostlagan shaharlar atrof hududlar aholisiga dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib bera boshladi⁴.

Tarixiy manbalarda X-XIII asrlarda Xorazm vohasi hududlari iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy qilganligi to‘grisidagi ma‘lumotlar mavjud. Bu haqda ilk manbalar Ibn Rusta, al-Istahriy, al-Maqdisiyarning asarlari, “Hudud al-olam” va boshqa asarlar yetarlicha ma‘lumot beradi⁵.

O‘rta asrlar davri Xorazm hunarmandchiliga oid ma‘lumotlar C.P.Tolstov, E.E.Nerazik, H.H.Vakturskaya, Yu.II.Manilov, M.Sh.Qidirniyazov singari mutahassislarning ilmiy maqola va asarlarida o‘z aksini topgan. Bu boradagi tadqiqotlar hanuz davom etmoqda. So‘nggi yillarda tadqiqotchi B.Q.Turganov Xorazmning VIII-XIV asrlardagi metallsozli hunarmandchiliga oid arxeologik topilmalar va yozma manbalar ma‘lumotlarini tahlil qilib, metall buyumlarni xronologik tavsiflash va davrlashtirish muammolariga o‘z e’tiborini qaratdi. Xorazm kulolchiligi rivojining yangi bosqichi rivojlangan o‘rta asrlarlarga to‘gri keladi. Xorazmshoh-Anushteginiyilar davrida hamda Xorazm Chig‘atoy va Jo‘ji uluslari tarkibiga kirgan davrda vohaning moddiy madaniyati tarixida kulolchilik ravnaq topganligini ko‘ramiz. XII-XV asrlarda voha kulolchiligidan uy sharoitida, qo‘lda yasalgan idishlar ancha kamayadi va asosan, kulolchilik charhida yasalgan ommaviy mahsulotlar va maxsus qoliplarda tayyorlangan qoshin tipidagi buyumlar idish-tovoq, me’moriy bezak taxtachalari (maolika va mozaika), taqinchoqlar keng ommalashadi. Ikkinchidan esa sopol buyumlar o‘z vazifasiga ko‘ra turlarga bo‘lindi. Shu bilan birga, o‘rta asrlar Xorazm vohasi kulolchiligidan o‘ziga hosligi bilan farq qiladigan jarayonlar yuzaga kelganligini ham ta’kidlash joiz. Xorazm kulolchilik buyumlari qo‘shni hududlardan topilgan shu turdagи mahsulotlar bilan solishtirib ko‘rilganda yaqqol ko‘zga tashlanadi, ya’ni mahalliy buyumlar o‘zining shakli va bezalish uslubi jihatidan boshqa mintaqalardan olingan buyumlardan ancha-muncha farq qiladi. XII-XV asrlar sopol buyumlari, asosan, ho‘jalik va oshxona idishlaridan iborat. Oshxona idishlariga hum, ko‘za, g‘ulcha, tog‘ora, kosa, piyola, likobcha, qozon kabi buyumlar ta`lluqli. XII asrga kelib, Xorazm kulolchiligi o‘z taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga etadi va qoshinsozlik hunarmandchiligi shakllanadi. Qoshinsozlik asosida uy-ro‘zgor idishlaridan tortib, me`moriy bezaklar va taqinchoqlarga qadar buyumlar tayyorlangan. Bu esa, o‘z-o‘zidan, yangi mahsulot turlarining ko‘payishiga olib kelgan.⁶.

XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyoning shaharsozlik markazlarida qandil deb nomlangan hamda yuksak badiy san’at darajasida tayyorlangan idishlar keng tarqaladi.

⁴ Эгамбердиева Н.А. Амударё хавзаси худудларининг қадимги маданияти (мил.авв. VIII-мил. IV асрлар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий дарражасини олиш учун ёзилган дис. –Тошкент.2021. –Б.137.

⁵ Абдуллаев Т.П. XII-XV асрларда Хоразм хунармандчилиги. тарих фан. Номзоди. Дис.-Тошкент. 2011. Б.247.

⁶ ТУРГАНОВ БАХЫТ ҚУРБАНБАЕВИЧ ХОРАЗМНИНГ ЎРТА АСРЛАРДАГИ МЕТАЛЛСОЗЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ. Тарих фанлари номзоди илмий дарражасини олиш учун ёзилган дис.- Самарканд.2019.-Б.255.

Qandil tayyorlash murakkab jarayon bo‘lib, maxsus kuydirish tehnologiyasini bilishni talab qildi.

Hunarmandchilikning temirchilik sohasi. Xorazmda ko‘plab temir va mis eritadigan hunarmandlar ustaxonalari, metalltoblaydigan o‘choqlar qoldiqlari ohib o‘rganilgan. O‘rta asr yodgorliklaridan metall buyumlardan tayyorlangan, ho‘jalik va qurilish ishlariga mo‘ljallangan oddiy metall buyumlardan tortib, san’at asarlari darajasiga ko‘tarilgan idish-tovoqlar, chiroqlar singari buyumlar topib o‘rganilgan. Yodgorliklarda mehnat qurollari, uy-ro‘zgor va ho‘jalik buyumlari,duradgorlik asboblari, harbiy qurol-aslahalar, zeb-ziynat buyumlari,taqinchoqlar va ot-ulov anjomlari majmuasi ko‘plab qayd qilingan.

Xorazmshohlar davlati tomonidan olibborjan son-sanoqsiz urushlar XI-XIII asr boshlarida vohada, ayniqla, temirchilik hunarmandchiligining taraqqiy qilishiga sabab bo‘ldi. Yozma manbalar ma’lumotlari bu davrda Xorazm harbiy qurol-aslahalar va harbiy uskunalar ishlab chiqarish borasida zamonasidan ancha oldinda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xorazm qo‘smini qilich, shamshir, kamon, nayza kabi oddiy harbiy qurollar bilan birga, manjaniq (katapulta), dabbabat (qamal mashinasi),toshbaqa (devorbuzar moslama), salalim va boshqa harbiy mashinalardan foydalanganligi manbalarda o‘z aksini topgan⁷. Xorazm aholisi qurol-aslahalar tayyorlashning bir qancha bosqichlaridan o‘tishgan. Qadimgi va o‘rta asrlarlar davrida qurol-aslahalarning takomillashuvi davlatchilik siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Xorazmshohlar-Anushteginiyilar davlatining harbiy salohiyati va qurol aslahalarga bo‘lgan ehtiyoji hunarmandchilikning temirchilik yo‘nalishi rivojlanishining asosiy omili bo‘lib, uni yuqori cho‘qqiga ko‘tardi.

Xorazmda o‘rta asrlar davri temirchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayoni, asosan, mehnat faoliyatini takomillashtirishga, hunarmandlar uchun qulay asboblarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa vohadagi shaharsozlik jarayoni omillaridan biri bo‘lib, iqtisodiy salohiyat ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi hamda hunarmandchilikning yuqori darajada bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Zarb etilgan tanga-chaqalarni ham Xorazm misgar ustalarining ajoyib mahsulotlari qatoriga qo‘sish lozim. Chunki Xorazmda qadim zamonlardan boshlab savdo aloqalarida mis, kumush, oltin (o‘rta asrlarda)tangalardan foydalanilgan. Ulardagi yozuvlar (qadimiy xorazm, arabcha) va ikonografik tasvirlar (aniq bitilgan ma‘buda, podshoh, hayvon, qush, quyosh, olov) voha shaharlarida mohir o‘ymakorlar bilan birgalikda, ajoyib husnixat egalari ham mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Shishasozlik hunarmandchiligi O‘rta Osiyoning urbanizatsiya markazlarida kulolchilik va temirchilik mahsulotlari bilan bir qatorda, shishasozlik

⁷ ТУРГАНОВ БАХЫТ ҚУРБАНБАЕВИЧ ХОРАЗМНИНГ ЎРТА АСРЛАРДАГИ МЕТАЛСОЗЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.- Самарқанд.2019.-Б.255.

hunarmandchiligi to‘grisida ham ma’lumotlar to‘plangan. O‘rganilayotgan davr Xorazm shishasozlik buyumlari orasida yoshbolalar beshigi anjomlari “tuvak” va “sumak”lar ham mavjud bo‘lib, bu davrlardayoq mahalliy aholi hayotida sanitariya-gigiyena tushunchalarining yuqori bo‘lganidan dalolat beradi. Tuvak va sumaklar narhi arzon buyumlar sanalgan va ko‘p ishlatilgan. Sopol idishlar orasida ham tuvaklar uchraydi. “Tuvak” va “sumak”lar namunalari Ko‘hna Urganch, Shemahaqa’la, Shehrliq, Mizzahqon, Shohsanam va boshqa yodgorliqlardan ma’lum⁸. Ma’lumki, o‘rta asrlarlarda oddiy shisha idishlar ommabop tayyorlangan. Shu bilan birga, san’at asari darajasiga ko‘tarilgan ayrim shisha idishlar ham mavjudligni ta’kidlash lozim. Ularning ko‘pchiligi mahalliy shishasozlar tarafidan tayyorlangan bo‘lsada; Vizantiya, Suriya, Iroq an’analari ta’sirida shakllanib, mazkur buyumlarning yorqin namunalari sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqaridan olib kelingan shisha buyumlar vohaning shahar aholsi turmushida uy-joylarning maxsus tokchalarini bezashda foydalanilgan. Ibn Battuta o‘zining “Sayohatnama” asarida xorazmliklarning mehmondo‘stligini maqtab shunday yozadi: “... bu shaharda (Gurganj) bo‘lgan vaqtimda biz qozi Abu Hafs Umar al-Baqriy uyiga juma namozidan so‘ng tashrif buyurdik. Qabulxonasi chiroyli gilamlar bilan bezatilgan, devorlari tokchalarida oltin suvi yuritilgan kumush idishlar va iroqi(shisha) ko‘zalar qo‘yilgan edi”⁹. Sayyoh boshqa bir joyda Xorazm amiri Qutlug‘ Temur qabulxonasidagi noz-ne’matlarni ta’riflar ekan, “Tozalangan anor donalari ichiga tilla qoshiqlar solingan oltin va kumush idishlarda, bir qismi esa iroqi shisha idishlarda tortildi”¹⁰, - deya takidlaydi. Umuman olganda, Xorazm o‘rta asrlarda (XII-XV asrlar) iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi o‘z salohiyati bilan ko‘plab hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirishga qodir bo‘lgan.

Manbalarda vohada o‘rta asrlarda shaharsozlik va me’morchilikda yog‘ochdan qurilish materiali sifatida foydalanilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham bor. Arab yozma manbalari Xorazmnning yog‘och sozlik hunarmandchiligi to‘grisida oz bo‘lsada, ma’lumot beradi. Jumladan, Ibn Fadlan, al-Maqdisiy, al-Yoqut kabi o‘rta asr tarixchi-geograflarining asarlarida shu haqda ma’lumotlar uchraydi. Yoqut al-Hamaviy Xorazmnig shahar va qishloqlarida o‘zi guvoh, bo‘lgan uy-joylar qurilishi ishlarida to‘xtalar ekan, “...Ularning turar joylari yog‘ochdan quriladi, so‘ng oralarida oftobda quritilgan hom g‘ishtlar bilan mahkamlanadi. Bunday uy-joylar ko‘pchilikni tashkil qiladi”¹¹, deya ma’lumot beradi. Kemasozlikda, shahar darvozalari kabi katta obyektlarni qurishda ham yog‘ochdan foydalanilgan. Bunda ular, yuqorida aytilganidek, temir parchinlar, mix, zulfin va kursovlar yordamida mahkamlagan.

⁸ Ёкут ал-Хамавий. Муъжам ал-удабо. Миср, 1925, 1929, 1931

⁹ Ne’matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati .-T,1993. 104 bet.

¹⁰ Ne’matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati .-T,1993. 104 bet.

¹¹ Ёкут ал-Хамавий. Муъжам ал-удабо. Миср, 1925, 1929, 1931

Yozma manbalar ma'lumotlariga tayangan holda, Xorazmshohlar davrida harbiy quroq-aslahalar va harbiy mashinalar ishlab chiqarish yuqori darajada bo'lganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Albatta, harbiy mashinalarning alohida qismlarini tayyorlashda qattiq yog'ochlardan ham keng foydalanilgan.

“Sayohatnoma” muallifi Ibn Battutaning Xorazm amiri Qutlug‘ Temyr saroyi hususidagi quyidagi ma'lumoti ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “...keng qabulxonasi va uy xonalarining aksariyati yog‘ochdan ishlangan. Keyin esa gumbazi o‘ymakor yog‘ochdan ishlangan kichikroq xonaga kirdik”¹². Duradgorlar yog‘ochga ishlov berish va o‘ymakorlik ishlarida biz yuqorida tadqiq qilgan temirsozlik mahsuloti va randalardan foydalanishgan. Bu esa o‘rta asrlarda qurilish ishlari va maishiy talablar asosida hunarmandlarning ayrim ixtisoslashgan guruhlari vujudga kelishiga olib kelgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, yozma manbalar ma'lumotlari va arxeologik qazishmalar natijasida qo‘lga kiritilgan ashyoviy dalillar hunarmandchilik sohasining boshqa tarmoqlari ham bo'lganligini ko‘rsatadi.

To‘qimachilik, suyakni qayta ishlash, ko‘nchilik (teri oshlash, unga ishlov berish va mahsulotlar tayyorlash) va hunarmandchilik bilan bog‘liq boshqa kasblar shular jumlasiga kiradi. Yozma manbalar, xususan, al-Maqdisiy “Ahsan at-taqosim...” asarida Xorazmda ipak aralashmasidan to‘qilgan yo‘l-yo‘l matodan (“olacha”) tikilgan kiyimlar, gilamlar, nafis parchalar tayyorlanishi haqida yozsa, al-Istahriy va “Hudud al-Olam” muallifi bu yerda (Xorazmda) chetga chiqariladigan paxta va jun matolar (qarbos) ko‘plab ishlab chiqarilishi hususida ma'lumot beradilar¹³. Vohada bo‘z va olacha matolari XIX asrlarning oxirlariga qadar, ya’ni rus manufakturasi mahsulotlari kirib kelguncha mahalliy sharoitda tayyorlangan.

Yoqt al-Hamaviyning mo‘gullar bosqinidan avvalgi Xorazm haqidagi ma'lumotlariga e’tibor qilsak, muallif o‘z asarida “...daraxtlarining ko‘pi tut va terakdir, tut ipak qurti uchun ozuqa” deya, vohadagi to‘qimachilik hunarmandchiligining bir sohasi bo‘lmish ipakchilikning hom ashyo manbasi to‘g‘risidagi ma'lumotni to‘ldiradi. Manbalarda qayd qilingan “qarbos” paxta gazlamasi bo‘lib, o‘zbek xalqi to‘qimachilari tomonidan “bazz, bo‘z” shaklida talaffuz qilinadi. Arzon va amalda ko‘p foydalanilgan ushbu mato etnografik ma'lumotlarda “chit” nomi bilan ham tilga olinadi. Xiva xonligida gazlama to‘quvchilarning ixtisoslashgan chitgarlar guruhi mavjud bo‘lgan. “Chitgar” atamasi tarixiy-etnografik ma'lumotlar va arxiv materiallaridan ma'lum.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘rta asrlarlarda Xorazm o‘zining iqtisodiy salohiyati bilan ko‘plab hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishga qodir edi.

¹² Ne'matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati .-T,1993. 104 bet.

¹³ Ne'matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati .-T,1993. 104 bet.

Yozma manbalarda ko‘nchilik bilan bog‘liq ma’lumotlar ham uchraydi. Jumladan, al-Maqdisiy Volga bo‘yi Bulg’oriyasidan Xorazmga oq qayn po‘stlog‘i keltirilishi haqida ma’lumot beradi. Oq qayin po‘stlog‘i o‘ramlari Shemahaqal’a, Ko‘hna Urganch, Oy ota, Jampiqqal’a, Mizdahqon yodgorliklarida qayd etilganligi ushbu ma’lumotni tasdiqlaydi.

A.Yu.Yaqubovskiy ta’kidlaganidek, oq qayin po‘stlog‘idan mahalliy sharoitda teri oshlashda foydalanilgan. bu kabi moslamalar terini qayta ishslash jarayoni bilan aloqador. Yakka Porson, Jampiqqala, Mizdahqon va boshqa yodgorliklardan teridan tayyorlangan poyabzal, qayish, tasma kesmalari topilgan. Bu esa Xorazmning rivojlangan o‘rta asr shaharlarida hunarmandchilikning ko‘nchilik sohasi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi¹⁴.

Ma’lumki, Xorazm Sharqiy Yevropa, O‘rta yer dengizi hamda Sharq mamlakatlari bilan olib borilgan iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o‘rin tutgan. Takashning Xorazm sarhadlarini kengaytirish va qudratli harbiy davlat barpo etish siyosati uning vorisi Alovuddin Muhammad (1200-1220) tomonidan davom ettirilib, Movarounnahrni qo‘shib olish bilan yakunlandi. XII-XIII asr boshlarida hukmronlik qilgan Xorazmshohlar-Anushteginiylar sulolasiga vakillari tuzgan markazlashgan kuchli davlat imperiya Iroqdan Hindistongacha, Mang‘ishloq va Orol dengizidan Hind okeanigacha cho‘zilgan keng geografik hududlardagi beqaror vaziyatni izga solishi bilan birga voha aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada Xorazmshohlar davlati tarkibiga jalb qilingan katta hudulardagi 400 ga yaqin shaharlar va vohalar o‘zaro integratsiya jarayonlariga kirishdi. Bepoyon katta hududning markazlashuvi iqtisodiy hayotning faollashuviga, shaharlarning kengayishiga, hunarmandchilik va savdo madaniyatining rivojlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-удабо. Миср, 1925, 1929, 1931.
2. Ne’matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati .-T,1993. 104 bet.
3. Бунёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати. – Тошкент: Фуфур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1998. – Б 205.
4. Ғуломов Я. Ғ. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти. 1959. – Б 102.
5. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Вкн.: Культура и искусство древнего Хорезма. - М.: Наука, 1981. – С. 219-227.
6. Бобоев Ҳ., Хидиров З. ва бошқалар. Ўзбек давлатчилиги тарихи (2-китоб). – Тошкент: Фан ва технология. 2009. Б- 85-86.

¹⁴ Зиё А. Узбек давлатчилиги тарихи. - Т.: 2000.

7. Абулғозий. Шажарайи турк. // Мерос туркумидан. – Тошкент: Мерос, 1992, 19-21- бетлар.
8. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. - Т.: 2000.
9. Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв. VIII-мил. IV асрлар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. –Тошкент.2021. –Б.137.
10. Абдуллаев Т.П. XII-XV асрларда Хоразм хунармандчилиги. тарих фан. Номзоди. Дис.-Тошкент. 2011. Б-247.
11. Турганов Бахыт Қурбунбуевич. Хоразмнинг ўрта асрлардаги металсозлик хунармандчилиги. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.- Самарқанд. 2019. - Б-255.